



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024 - yil 11 - yanvar

VI-85-1-10-0-K/24

Toshkent viloyati hokimiligi

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, ko'p farzandli oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz qariyalar va o'z daromadini yo'qotgan vaqtincha ishsiz bo'lgan fuqarolarga "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan moddiy yordam ajratish to'g'risida

Ma'lumki, pandemiya davrida kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-sonli farmoyishi va O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi respublika boshqaruvining 2020-yil 23-apreldagi 87-sonli qaroriga muvofiq "Mahalla" xayriya jamoat fondi Toshkent viloyat bo'limi qoshida yuridik shaxs tashkil etmagan holda "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi tashkil etildi.

Jamg'arma mablag'lari ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko'p farzandli oilalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga va yolg'iz qariyalarga, o'z daromadini yo'qotgan vaqtincha ishsiz bo'lgan shaxslarga pul mablag'lari, kundalik iste'mol tovarlari, dori vositalari va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash uchun ishlatilishi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 250-sonli qaroriga asosan "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalar va fuqarolarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish, mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalarning bandligini ta'minlash, ularga moddiy yordam ko'rsatish, sog'ligini tiklashga "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'laridan moliyalashtirilishi belgilangan.

Yuqoridagi farmoyish va qarorga asosan jamg'armaga kelib tushgan mablag'lar Xalq deputatlari viloyat Kengashining roziligi bilan tasarruf etiladi.

Toshkent viloyati hokimi, 1-sektor rahbari Z.Mirzayev fuqarolarni murojaatlarini

qabul qilib, ularni muammolarini hal qilish bo'yicha qarorlar qabul qildi, shu bilan birga, Xalq deputatlari viloyat Kengashiga murojaat qilib, viloyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, ko'p farzandli oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz qariyalar va o'z daromadini yo'qotgan vaqtincha ishsiz bo'lgan **42 nafar** fuqarolarning ro'yxatini taqdim etgan holda ushbu fuqarolarning moddiy holatini yaxshilash, ularga mehr va saxovat ko'magini ko'rsatish maqsadida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan mablag' ajratish bo'yicha taklif kiritgan.

Kam ta'minlangan aholini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida Xalq deputatlari viloyat Kengashining ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining o'rganish ma'lumotnomasi hamda yig'ilish bayoni qarorini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 250-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-sonli farmoyishiga, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining yig'ilish bayoni qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko'p farzandli, nogironligi bo'lgan shaxslar va yolg'iz qariyalar, o'z daromadini yo'qotgan vaqtincha ishsiz bo'lgan shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami **22 nafar** fuqarolarga "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan jami **153 000 000 (bir yuz ellik uch million)** so'm mablag' ajratish masalasi **Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritilsin.**

Bunda viloyat "Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan **8 nafar** fuqarolarga **68 000 000** (oltmish sakkiz million) so'm ajratilishi va shahar va tumanlardan **14 nafar** fuqarolarga **85 000 000** (sakson besh million) so'm mablag' ajratilishi nazarda tutilsin.

3. O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi viloyat bo'limi boshqaruvi raisi (Dilshod Shoismanov) ajratilgan **68 000 000** (oltmish sakkiz million) so'm mablag'larni ilovada ko'rsatib o'tilgan **8 nafar** fuqarolarga ularning plastik kartalariga tushirib berilishi yoki naqd pul ko'rinishida belgilangan tartibda yetkazishini ta'minlasin.

4. Xalq deputatlari tuman va shaharlar Kengashlari raislari, tuman va shaharlar hokimlari ro'yxatdagi **14 nafar** fuqarolarga **85 000 000** (sakson besh million) so'm mablag'larni ilovada ko'rsatib o'tilgan fuqarolarga ularning plastik kartalariga tushirib

berilishini ta'minlasin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi "Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 250-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-sonli qarorlariga asosan, bir martalik moddiy yordam ajratish kalendar yili davomida bir marta amalga oshirilishini hamda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari tomonidan tuzilgan Ishchi guruhlar xulosalarini inobatga olgan holda quyidagi **13 nafar fuqarolarga **moddiy yordam ajratish rad etilsin:****

Olmalik shahar, Mutajlil mfy, 13-uyda yashovchi F.Karimovaga;

Ohangaron shahar, 4-daha, 11a-uy, 30-xonadonda yashovchi Sh.Usmonovaga;

Ohangaron shahar, 4-daha, 23-uy, 55-xonadonda yashovchi M.Usmonovga;

Oqqo'rg'on tuman, Usta Normat mfy, Ibn Sino ko'chasi 26-uyda yashovchi Sh.Normuminovga;

Ohangaron shahar, 4-kichik tuman, Yoshlik ko'chasi 23-uy, 55-xonadonda yashovchi M.Boymatovaga;

Toshkent tuman, Istiqbol mfy, Bayram ko'chasida yashovchi V.Toshxo'jayevaga;

Qibray tuman, Taraqqiy mfy, Shinam ko'cha 106a-uyda yashovchi D.Karimovaga;

Qibray tuman, Birlik mfy, Obod ko'cha 36a-uyda yashovchi Sh.Kenjayevga;

Quyi Chirchiq tuman, Shodlik mfy, Qo'shchinor ko'chasi 11a uyda yashovchi S.Saidikromovga;

Quyi Chirchiq tuman, Beruniy mfy, Beg'ubor ko'chasi 6-uy, 6-xonadonda yashovchi Kim Jannaga;

Chirchiq shahar, Semurg mfy, 8-kichik nohiya 20-uy, 63-xonadonda yashovchi U.Rustamovaga;

Chinoz tuman, Yangi mahalla, O'zbekiston ko'chasi 4-uyda yashovchi N.Ro'ziboyevga;

Yuqori Chirchiq tuman, Mirobod mfy, Mehr nuri ko'chasi 8-uyda yashovchi T.Soyga;

Shuningdek, yil davomida fuqarolarga mablag' ajratilganlik holati

aniqlansa, ushbu fuqarolarga ham Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28- apreldagi “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 250-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-sonli qarori qarori talablaridan kelib chiqib ruxsat etilmasin.

6. Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Ulug‘bek Abduganiyev)ga;

Nurafshon shahar, Bobur mfy, P.G‘oziyev ko‘chasi 18-uyda yashovchi X.Rixsiyevaga;

Parkent tuman, Beshkapa mfy, Iltifot ko‘chasi 27-uyda yashovchi D.Ermatovaga;

Quyi Chirchiq tuman, Bog‘iston mfy.da yashovchi J.Abduraimovaga;

Zangiota tuman, O‘rta ovul mfy, Yoshlik ko‘chasi 19-uyda yashovchi T.Azamatovga;

Toshkent tumani, A.Navoiy mfy, Ravnaq ko‘chasi 51-uyda yashovchi R.Valiyevga, jami **5 nafar** fuqarolarga belgilangan tartibda **imtiyozli yo‘llanma berish yoki viloyat shifoxonalarida davolanishlarini tashkillashtirish;**

- Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha **2024-yilning 10 yanvar kuniga qadar** Xalq deputatlari viloyat Kengashiga ma‘lumot taqdim etish **vazifasi yuklatilsin.**

7. Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashi raisi, tuman hokimi (Sh.Shoaxmedov)dan:

Parkent tuman, Samarobod mfy, Beruniy ko‘chasi 64-uyda yashovchi M.Miralgayevga;

Parkent tuman, Samarobod mfy, Saodat ko‘chasi 240-uyda yashovchi G.Turg‘unovanning murojaatini belgilangan tartibda o‘rganib chiqish va fuqaroga yordam ko‘rsatish chorasini ko‘rish so‘ralsin.

Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Xalq deputatlari viloyat Kengashiga **2024-yilning 10-yanvar kuniga qadar axborot berilsin.**

8. Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2023-yil 20-dekabrdagi VI-85-115-10-0-K/23-sonli qarori 1-ilovasi 25-bandi Qibray tumani “Fidokor” MFY, Mehrjon ko‘chasi, 26-uyda yashovchi Abduqahhorova Dilbarga tegishli qismi 15 mln so‘m o‘rniga 33 mln so‘m deb o‘qilsin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Abdurasul Abdullayev ajratilgan mablag‘larni

fuqarolarga belgilangan tartibda yetkazishga mas'ul etib belgilansin.

10. “Mahalla” xayriya jamoat fondining viloyat bo‘limi bosh hisobchisi Dilmurod Amanov mablag‘ ajratish va o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Abdurasul Abdullayev hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashi ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sayyora Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev

Xalq deputatlari Toshkent
viloyat Kengashining
2024-yil 11-yanvardagi
VI-85-1-10-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

**Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko'p farzandli, nogironligi bo'lgan shaxslar va
yolg'iz qariyalar, o'z daromadini yo'qotgan vaqtincha ishsiz bo'lgan shaxslarni
moddiy qo'llab-quvvatlash**

TO'G'RISIDA

№	Tuman, shahar	Manzili	F.I.SH.	Ajratilgan mablag' miqdori (so'm)	Maqsad	Qayerdan ajratiladi	
						"Saxovat va ko'mak" jamg'armasi viloyat bo'limidan	"Saxovat va ko'mak" jamg'armasi tuman, shahar bo'limidan
1	Bo'stonliq tumani	Sijjak mfy, Sarbog' ko'chasi 6-uy	Tillaxodjayeva Maxliyo Baxodir qizi	15 000 000	moddiy yordam		15 000 000
2	Bo'stonliq tumani	Dadaboyev mfy, Uringoch ko'chasi 4-uy	Cherimbetova Baltash	3 000 000	moddiy yordam		3 000 000
3	Bo'ka tuman	Achamayli mfy, Yangi hayot ko'chasi 17-uy	Yo'ldosheva Dilnoza Qulmatovna	7 000 000	moddiy yordam		7 000 000
4	Nurafshon shahar	Bobur mfy, P.Go'ziyev ko'chasi 18-uy	Rixsiyeva Xaniza	10 000 000	moddiy yordam	10 000 000	
5	Parkent tumani	Objuvoz mfy, Qadriyat ko'chasi 43-uy	Xolova Maxmuda Turg'unboyevna	15 000 000	moddiy yordam		15 000 000
6	Parkent tumani	Objuvoz mfy, Istedod ko'chasi 3-uy, 23-xonadon	Isroilov Abdurasul Tursunmurovich	5 000 000	moddiy yordam		5 000 000
7	Parkent tumani	Samarobod mfy, Beruniy ko'chasi 21-uy	Abduraxmonova Zumrad Ag'zamovna	3 000 000	moddiy yordam		3 000 000
8	Piskent tuman	Saidobod mfy	Qo'ziboyeva Madina Mo'min qizi	5 000 000	moddiy yordam		5 000 000
9	Quyi Chirchiq tumani	Shodlik mfy, Alpomish ko'chasi 44-uy	Abdugapparova Fotima Tursunovna	5 000 000	moddiy yordam		5 000 000
10	Quyi Chirchiq tumani	Chaqmoq mfy, Ibn Sino ko'chasi 20-uy	Kamalova Maxliyo Ozod qizi	8 000 000	moddiy yordam	8 000 000	
11	Quyi Chirchiq tumani	Oydinobod mfy, Ko'kariq ko'chasi 17-uy	Sog'indiqova Gulmira Po'lat qizi	15 000 000	moddiy yordam	15 000 000	
12	Quyi Chirchiq tumani	Paxtazor mfy, G'ofur G'ulom ko'chasi 5-uy	Abdurahmonova Dinara	8 000 000	moddiy yordam	8 000 000	
13	Quyi Chirchiq tumani	Vatan mfy, Mexr nuri ko'chasi 15-uy	Kasmuratova Aliya Saparovna	8 000 000	moddiy yordam	8 000 000	
14	Quyi Chirchiq tumani	Mashrab mfy 116-uy	Ayupov Sherzod	3 000 000	moddiy yordam		3 000 000

15	Quyi Chirchiq tuman	Galabotir mfy	Djumanov Elyor Begaliyevich	6 000 000	moddiy yordam		6 000 000
16	Quyi Chirchiq tuman	Beruniy mfy, Beg'ubor ko'chasi 26-uy, 10-uy	Gaipov Shaxobiddin To'xtasinovich	6 000 000	moddiy yordam		6 000 000
17	Quyi Chirchiq tuman	Beruniy mfy, Beg'ubor ko'chasi 48-uy	Qo'ldosheva Saniya	3 000 000	moddiy yordam		3 000 000
18	Quyi Chirchiq tuman	Uch chinor mfy, Sharqiy ko'chasi 27-uy	Xagay Marina Genadiyevna	5 000 000	moddiy yordam		5 000 000
19	Quyi Chirchiq tuman	Uch chinor mfy, Bog'ieram ko'chasi 25-uy	Kenjebayeva Guljaxon Koshimovna	4 000 000	moddiy yordam		4 000 000
20	Quyi Chirchiq tuman	Sergeli mfy, Bog' ko'cha 23-uy	Yaxyaxonova Tursunoy Ibragimovna	10 000 000	moddiy yordam	10 000 000	
21	O'rta Chirchiq tumani	Mayramko'l mfy, Timsol ko'chasi 149-uy	Ergasheva Xurkiya Kuzabayevna	3 000 000	moddiy yordam	3 000 000	
22	O'rta Chirchiq tumani	Mayramko'l mfy, Mayramko'l ko'chasi 29-uy	Jo'rayeva Artik Yusupovna	6 000 000	moddiy yordam	6 000 000	
	Jami			153 000 000		68 000 000	85 000 000